



# KONFERENSIYA

**“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI  
RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN  
KREATIV G’OYALAR,  
TAKLIFLAR VA YECHIMLAR”**

@bestpublication |     | Street: Alisher Navoiy

FARG‘ONA 2024



**«BEST PUBLICATION»**

*Ilm-ma’rifat markazi*

**“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA  
QARATILGAN KREATIV G’OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR”  
MAVZUSIDAGI 62-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ON-LINE  
KONFERENSIYASI  
MATERIALLARI TO‘PLAMI  
1-FEVRAL , 2024-YIL**

**62-SON**

**“DEVELOPMENT OF A MODERN EDUCATION SYSTEM AND CREATIVE  
IDEAS FOR IT, REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL ON-LINE  
CONFERENCE ON "SUGGESTIONS AND SOLUTIONS"**

**1- FEBRUARY 2024**

**PART-62**

Ushbu to‘plamda “Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 62-sonli Respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasiga kelib tushgan tezis va maqolalar o‘rin olgan.

Mazkur ilmiy-amaliy on-line konferensiyada zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta’limni rivojlantirishda yo‘nalishlar bo‘yicha kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur Respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiya materiallaridan OTM professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta’limmaktabo‘qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgantadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

**Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyiligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

## TAHRIRIYAT

### **Bosh muharrir**

*Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich  
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD*

### **Mas‘ul muharrir**

*Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o‘g‘li  
Farg‘ona davlat universiteti*

### **Mas‘ul kotib**

*Xasanov Tursunali Xaydarali o‘g‘li  
Marg‘ilon shahar 11-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchisi*

### **Nashrga tayyorlovchi**

*Qobilova Saidaxon Muahhamdjon qizi  
Farg‘ona davlat universiteti  
Salomov Shoxabbos Nozimjon o‘g‘li  
Andijon Davlat Tibbiyot Instituti „ Davolash ishi “ fakulteti talabasi*

### **Tahrir kengashi a‘zolari**

#### **Mo‘minov Qobiljon Qodirovich**

*Fizika-matematika fanlari doktori professor*

#### **Sultonali Mannopov**

*O‘zbekiston xalq artisti, professor*

#### **Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna**

*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

#### **Nikadambayeva Hilola Batirovna**

*Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar  
universiteti, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

#### **Pirimov Akram Pirimovich**

*Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent*

#### **Shodiyev Furqat Davranovich**

*Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari nomzodi,  
Dotsent*

#### **Qurbonova Muqaddas Omonovna**

*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

#### **Otaqulov Fozil Sobirovich**

*Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

#### **Aslanov Xakimjon Ro‘ziboyevich**

*FarDU, Harbiy ta‘lim fakulteti Umumqo‘shin tayyorgarligi  
sikli boshlig‘i, podpolkovnik*

#### **Karimov O‘lmasbek Umaraliyevich**

*FarDUo‘qituvchisi*

#### **Arslonov Zarifjon Zokirjon o‘g‘li**

*Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi yetakchi ilmiy  
xodimi*

#### **Zaparov Abduqaxxor Abdumalikovich**

*Andijon davlat universiteti Umumtexnika fanlari kafedrasi professori  
texnika fanlari doktori*

<b>MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ</b>	
<b>SO‘Z BOSHI</b>	
<i>G‘AZNACHILIKDA DAVLAT MOLIIYAVIY NAZORATINING O‘RNI</i> <b>Hamdamov Oybek Aslonjonovich</b>	7
<i>MARKAZIY BANKNING PUL-KREDIT SIYOSATI</i> <b>Tursunboyev Davlatjon Zaynitdinovich</b>	10
<i>ИЖОДКОР ХАЁЛОТИНИНГ ДЕВОРИЙ СУРЪАТЛАРИДАГИ ТАЛҚИНИ</i> <b>Йўлдошева Азиза Зокир қизи</b>	13
<i>БЕХЗОД ХАДЖИМЕТОВ ИЖОДИДА МАҲОБАТЛИ РАҲТАСВИР АСАРЛАРИ</i> <b>А. Йўлдошева</b>	17
<i>RAQAMLI IQITSODIYOT SHAROITIDA KO‘RSATILYOTGAN XIZMATLAR NAJMI VA UNING TAHLILI</i> <b>Suyunov Asror Baxtiyorovich</b>	20
<i>AXBOROT-TEKNOLOGIYALARI SOHASIDA XALQARO TAJRIBADAN FOYDALANISH YO‘LLARI</i> <b>Suyunov Asror Baxtiyorovich</b>	23
<i>АНКИЛОЗЛОВЧИ СПОНДИЛОАРТРИТ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН БЕМОРЛАРДА КАСАЛЛИК ФАОЛЛИК ИНДЕКСЛАРИ ТАҲЛИЛИ</i> <b>Набиева Д.А., Махаматходжаева Х.Б.</b>	26
<i>АНКИЛОЗЛОВЧИ СПОНДИЛОАРТРИТ БИЛАН БЕМОРЛАРДА IL-23 ВА UKL-40 ТАҲЛИЛИ ҲАМДА УЛАРНИНГ КАСАЛЛИК ФАОЛЛИК ДАРАЖАЛАРИ БИЛАН КОРРЕЛЯЦИОН БОҒЛИҚЛИГИ</i> <b>Набиева Д.А., Махаматходжаева Х.Б.</b>	28
<i>ИНТЕГРИРОВАННЫЙ ПОКАЗАТЕЛЬ ОБУЧАЕМОСТИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ШКОЛЕ</i> <b>Махмудова Иззат Зарипбаевна</b>	30
<i>FACING SOME CHALLENGES IN A MAKING CLASSROOM OBSERVATIONS</i> <b>Malikova Khurshida</b>	33
<i>AMARANT O‘SIMLIGINING QISHLOQ XO‘JALIGIDA FOYDALANILISHI</i> <b>Di yana Janibek qizi</b>	36
<i>QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH</i> <b>Uzakova Umida Ro‘ziyevna</b>	39
<i>QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI</i> <b>Uzakova Umida Ro‘ziyevna</b>	41
<i>ЎЗБЕКИСТОНДА ЭЛЕКТР ЭНЕРГЕТИКА ТАРМОҒИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ</i> <b>Самиев Шохрух Фахриддин ўғли</b>	44
<i>ЭНЕРГЕТИКА ТАРМОҒИДА ҚАЙТА ТИКЛАНУВЧИ ЭНЕРГИЯ МАНБАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ</i> <b>Самиев Шохрух Фахриддин ўғли</b>	46
<i>PECULIARITIES OF IMMUNE STATUS IN PATIENTS DURING THE ACUTE PERIOD OF ISCHEMIC STROKE</i> <b>Narzullaev N.U., Shomurodov Kh.Sh., Umarova M.N.</b>	48
<i>ИММУНОЛОГИЧЕСКИЕ НАРУШЕНИЯ В ОСТРОМ ПЕРИОДЕ</i>	49

<i>ИШЕМИЧЕСКОГО ИНСУЛЬТА И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ КОРРЕКЦИИ МЕТОДАМИ РЕФЛЕКСОТЕРАПИИ</i> <b>Нарзуллаев Н.У., Шомуродов Х.Ш., Умарова М.Н.</b>	
<i>ОСОБЕННОСТИ ИММУННОГО СТАТУСА У ПАЦИЕНТОВ В ОСТРОМ ПЕРИОДЕ ИШЕМИЧЕСКОГО ИНСУЛЬТА</i> <b>Нарзуллаев Н.У., Шомуродов Х.Ш., Умарова М.Н.</b>	<b>50</b>
<i>O'RTA OSIYO ALLOMALARINING MATEMATIKA FANIGA QO'SHGAN HISSASINING BUGUNGI KUN ILM-FANIDAGI AHAMIYATI</i> <b>Muhammedov Firuzjon Farmon o'g'li</b>	<b>51</b>
<i>BOSHLANGICH SINFLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH</i> <b>Xujayarova Munisa Bobojonovna</b>	<b>53</b>
<i>ABDULLA QODIRIY ADABIY MEROSINING YURTIMIZDA O'RGANILISHI</i> <b>Abduraxmonova Nigoraxon Nimatullayevna</b>	<b>55</b>
<i>MATEMATIKANING ASOSIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI. HOZIRGI ZAMON MATEMATIKASINING TARKIBI, AHAMIYATI VA TADBIQLARI</i> <b>Imomkulova Sevvara Ochildinovna</b>	<b>60</b>
<i>РЕФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ МЕДИКО-СОЦИАЛЬНОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ - ОСНОВА СОЗДАНИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБЩЕСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН</i> <b>А.К.Инаков, А.С.Бердиев, Ж.Ю.Нажмитдинов, М.М.Миралимов</b>	<b>65</b>
<i>МИРЗО УЛУҒБЕК - ДАВЛАТ АРБОБИ, БУЮК ОЛИМ</i> <b>Расулова Камола Хазраткуловна, Рўзиев Азизжон Шербоевич</b>	<b>68</b>
<i>TA'LIM VA UNING INSON MEHNAT KAPITALINING SHAKLLANTIRISHDAGI ROL.</i> <b>To'rayeva Huriyat Tuuqulovna</b>	<b>71</b>
<i>ИЗУЧЕНИЕ НЕКОТОРЫХ КЛИНИЧЕСКИХ, БИОХИМИЧЕСКИХ, ГЕМАСТАЗИОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРИ АНТИФОСФОЛИПДНОМ СИНДРОМЕ У БЕРЕМЕННЫХ АССОЦИИРОВАННАЯ РАЗЛИЧНЫМИ ВИДАМИ АНЕМИЙ. РЕСПУБЛИКАНСКОЕ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЕ ПРЕДПРИЯТИЕ «ПРЕПАРАТЫ КРОВИ»</i> <b>Д.А.Кодирова, Н.Т.Жураева,</b>	<b>75</b>
<i>ГЕМОСТАЗИОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА НАРУШЕНИЙ В СИСТЕМЕ ГЕМОСТАЗА У ЖЕНЩИН С ПРИВЫЧНЫМ НЕВЫНАШИВАНИЕМ БЕРЕМЕННОСТИ ПРИ НАЛИЧИИ АНТИФОСФОЛИПДНЫХ АНТИТЕЛ И ГИПЕРГОМОЦИСТЕИНЕМИИ</i> <b>Кодирова Д.А., Убайдуллаева З.И</b>	<b>77</b>
<i>IQTISODIY METAFORALARNING STRUKTUR HAMDA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI</i> <b>Xayrullayeva N.N</b>	<b>80</b>

## IQTISODIY METAFORALARNING STRUKTUR HAMDA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Xayrullayeva N.N

BuxDU ,

Ingliz tilshunosligi kaferasi o`qituvchisi, PhD

Lison ilmida soʻzlar turli jihatdan tadqiq etiladi. Metaforalarning nutq sohibi tomonidan keng qoʻllanishda boʻlishida metaforaning maʼnoviy jihatlari qay darajada muhim boʻlsa, uning struktur xususiyatlari ham shu qadar ahamiyatlidir.

L.T. Eloeva metaforalarni struktur jihatdan ikkiga boʻlib oʻrganishni taklif etadi:

- 1) yakka metafora;
- 2) qoʻshma metafora<sup>2</sup>.

Yakka metaforani ajratishda olima metaforaning bitta soʻzdan iboratligiga eʼtibor qaratadi. Qoʻshma metaforalarda esa metaforaning ikki va undan ortiq tarkibdan tashkil topganligini asos qilib oladi.

Metaforaning tarkibiy xususiyati shundaki, uning uchun bitta tuzilmani tanlash umuman mumkin emas. Metafora soʻz, ifoda, matn, belgi boʻlishi mumkin. Biroq, metaforaning mohiyati faqatgina tashqi tuzilish bilan emas, balki ichki va tashqi oʻzaro mutanosiblik bilan belgilanadi<sup>3</sup>.

Kuzatishlar davomida ingliz va oʻzbek tillaridagi iqtisodiy metaforalarning tarkiban xilma-xil tuzilishda ekanligiga guvoh boʻldik.

Jumladan, ingliz tilida nafaqat ikki, uch **komponentli** xamda gap tuzilishidagi, umuman, fraza shaklidagi iboralar ham iqtisodiy mavzularni qamrab olib, ingliz dunyosida keng qoʻllaniladi. Masalan: *as poor as a church mouse; as poor as a dog; to be moth-eaten; to be vermin-eaten; to have only a shirt on one's back; to live from hand to mouth; put your money where your mouth is; to go through hard times; to fall in poverty; to go through hell; to be hard up; money does not grow on trees; to be wealthy; to be affluent; to be loaded; to be rolling in money; to be flush with money; to be on easy street; to be a sugar-daddy; to be filthy rich; to be stinking rich; to be lousy with money...*

Umuman olganda, ogʻzaki va yozma nutqda **bir komponentli iqtisodiy metafora, ikki komponentli iqtisodiy metafora, uch komponentli iqtisodiy metafora, toʻrt va undan ortiq komponentli iqtisodiy metaforalar** keng uchraydi

**Bir komponentli iqtisodiy metaforalar.** Bir komponentdan iborat iqtisodiy metaforalar faqat bitta mustaqil soʻzdan tashkil topgan boʻladi. Ingliz tilidagi iqtisodiy

<sup>2</sup> Ключерова А.О. [Структура и функции метафор в произведениях А.С. Грина](https://www.dissercat.com/content/struktura-i-funksii-metafor-v-proizvedeniyakh-as-grina). Дисс. канд. филол. наук. – Москва: 2018. <https://www.dissercat.com/content/struktura-i-funksii-metafor-v-proizvedeniyakh-as-grina>

<sup>3</sup>Калашникова Л.Р. Метафора как механизм когнитивно-дискурсивного моделирования действительности. <http://www.dslib.net/jazyko-znanie/metafora-kak-mehanizm-kognitivno-diskursivnogo-modelirovanija-dejstvitelnosti.html>

metaforalarning sanoqli qisminigina bir komponentli iqtisodiy metaforalar tashkil etishining guvohi bo‘ldik. Masalan: *fleeing, in pain, uncompetitive, unstable*. Kuzatishlarimiz davomida o‘zbek tilida bir komponentli iqtisodiy metaforalarni deyarli uchratmadik.

**Ikki komponentli iqtisodiy metaforalarning** o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular tarkiban ikkita mustaqil birlikdan tashkil topgan bo‘ladi. Ingliz tilida: *windfall profit, debt crisis, feeling green, talking heads, sticky fingers, personal capital, opportunity cost, sucking economy, financial repression, economy is thirsty, economy is straving, nurturing an economy, economy is biting, an economic boom*. Yuqorida sanab o‘tilgan *economy is thirsty, economy is straving, nurturing an economy, economy is biting, an economic boom, aqlli megapolis, smart shartnomalar* kabi iqtisodiy metaforalar bir qarashda uch komponentdan iborat iqtisodiy metafora sifatida tasavvur uyg‘otsa-da, ularni ikki komponentdan iborat iqtisodiy metaforalarga kiritishni joiz deb topdik. Boisi mazkur metaforalar tarkibidagi *is* va *an* birliklari ko‘makchi hamda artikl sanalib, odatda yakka holda mustaqil qo‘llanmaydi.

Kuzatishlar o‘zbek tilidagi iqtisodiy metaforalarning aksariyat qismi sifatlovchi sifatlanmish, ma’lum bir qismi esa qaratqich qaralmish munosabatida bo‘lishini ko‘rsatdi.

**Sifatlovchili birikma** shaklidagi iqtisodiy metaforalar: *rising block tariffs, shrinking ears, smaller stairs, talking heads, milliy iqtisodiyot, jinoiy daromadlar, erkin bozor, aqlli megapolis, yopiq iqtisodiyot, investitsion chanqoqlik, raqamli iqtisodiyot, qimmatbaho qog‘ozlar, xavfsiz to‘lov, fiskal maqsad, iqtisodiy o‘shish, iqtisodiy inqiroz, chakana savdo, mahalliy byudjet, ochiq valyuta, qora bozor, tashqi savdo, faol aksiya, hayot sug‘urtasi, yashirin iqtisodiyot*.

**Qaratqichli birikma** shaklidagi iqtisodiy metaforalar: *pulning qadrsizlanishi, valyutaning sinishi, aktivlarning qadrsizligi, valyutaning o‘shishi, bozorning moslashuvchanligi, the heart of global economy– global iqtisodiyotning yuragi; the backbone of the economy- iqtisodiyotning tayanchi*

O‘zbek tilidaga ikki komponentli iqtisodiy metaforalar orasida **to‘ldiruvchi shakli** yordamida hosil qilingan birikmalarni ham ko‘rish mumkin: *inflyatsiyani o‘stirmoq, narxlarni erkinlashtirmoq, turizmni raqamlashtirish, iqtisodiyotni o‘stirish* kabi.

**Uch komponentli iqtisodiy metaforalar.** Bunday metaforalar uch mustaqil komponentdan iborat bo‘ladi. Ingliz tilida: *lacking social power, low in social position, yellow dog contract, energy step to economy, environmental step to economy, economy is taking medicine, feeding the black economy, economies weaning the profit, nurturing a knowledge economy, fostered an economic boom, starved of foreign investment, peak power output, rising block tariffs, bird of gold opportunity, float of a celestral jukebox, promotive a circular economy, build a profession from scratch, meet the new world, ripe for public corruption*.

Bunday iqtisodiy metaforalar birikma tarzida shakllanib, ulardagi uch tarkibiy qismdan ikkita komponent tobe mavqeda bo‘ladi, aksariyat iqtisodiy metaforalarda tobelanish zanjirli tarzda namoyon bo‘ladi: *internet banking xizmati, ijtimoiy himoya qalqoni, qimmatli qog‘ozlar bozori, valyuta kursi kanali, istiqbolli kredit liniyalari, aholining iste‘mol*

*kayfiyati, inflyatsiya prognoz koridori, erkin bozor munosabatlari, milliy iqtisodiyotning lakomativi, stress testdan o‘tkazish, sayohatning interfaol rejasi, axborot almashish taxtasi.*

**To‘rt va undan ortiq komponentli iqtisodiy metaforalar.** Iqtisodiy metaforalarni kuzatish davomida to‘rt tarkibdan iborat bo‘lgan metaforalarni ham kuzatish mumkin, lekin ular sanoqli. Shuningdek, besh, olti tarkibdan iborat iqtisodiy metaforalar ham mavjud. Biroq ular ham miqdoran oz. Iqtisodiy metaforalarning mana shunday struktur jihatdan o‘ziga xosligini inobatga olib, metaforaning ushbu guruhini to‘rt va undan ortiq komponentli iqtisodiy metaforalar deya nomladik. Ingliz tilida: *feeds back into the local economy, economy is nursed back towards stability, the world economy continues to hum along, economy by trying to wean itself off oil, feeds the black economy on a grand scale, embrace new technology in economy, slower death by a thousand cuts, long term fiscal shortfall.*

O‘zbek tilida: *yagona milliy mehnat tizimi, turistik mahsulotni sotish kanallari, quvib yetuvchi rivojlanish modeli, valyuta kursining xatarlarni o‘ziga singdirishi.*

Xullas, iqtisodiy metaforalar struktur jihatdan xilma-xil tuzilishga ega bo‘lib, ular orasida ikki komponentli iqtisodiy metaforalar faol qo‘llanishdadir. Qayd etish lozimki, metafora har doim dolzarb bo‘lib qoladi, chunki har bir insonning o‘ziga xos tasavvuri va fantaziyasi bor va bu metafora rivojlanishining boshlang‘ich nuqtasidir<sup>4</sup>.

Shuningdek, yana bir muhim jihat iqtisodiy metaforalarning sintaktik xususiyatlarini yoritish ekanmiz, avvalambor sintaktik tahlilning asosi sintaksis ekanligini e‘tirof etish joiz topdik.

**Sintaksis** (grekcha *syntaxis* so‘zidan olingan bo‘lib, yopishtirmoq, birlashtirmoq demakdir) til tizimining yuqori sathi bo‘lgan sintaktik sath hamda shu sath haqidagi ta’limotdir.

Sintaksisning o‘rganish predmeti gap va uni tashkil etgan so‘z shakllarining o‘zaro grammatik va mazmuniy munosabatlari hamda bu munosabatlarni yuzaga chiqaruvchi vositalardir. Sintaksis, bir tomondan, so‘z shakllarining bog‘lanish qoidalarini, ikkinchi tomondan, tarkibida bu qoidalar ro‘yobga chiqadigan bir butunlikni —gapni o‘rganadi.

Anglashiladiki, morfologik birlik bo‘lgan so‘zning shakli ham sintaksis uchun ahamiyatlidir. Lekin faqat so‘zning boshqa shakllari bilan aloqasi va sintaktik birlik ichida uning bir qismi sifatida bajaradigan vazifasi nuqtai nazaridagina sintaktik qiymatga ega bo‘ladi. Nutqning axborot tashuvchi eng kichik birligi va shunday birliklarning umumlashgan namunasi gapdir. Demak, sintaktik sathning asosiy birligi va sintaksisning asosiy o‘rganish ob’ekti **gap** hisoblanadi. Gap bir butunlik sifatida gap bo‘laklaridan va so‘z bo‘laklaridan tashkil topadi. Demak, gapning ichki tuzilish birligi gap bo‘laklari va so‘z birikmalaridir.

<sup>4</sup> Магизова, Р. У. Основы метафорических изменений лексического значения в английском языке / Р. У. Магизова, Н. Ж. Гумерова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. № 26 (316). — С. 248-250.

So‘z birikmasi esa borliqdagi predmet va hodisalar o‘rtasidagi ma‘lum munosabatlarni aks ettiruvchi ikki mustaqil so‘zning o‘zaro **grammatik** va **mazmuniy** birikuvidan tashkil topadi. Shunday qilib, gap va so‘z birikmasining tashkil etuvchi eng kichik birlik so‘z va so‘z **shakllari** sanaladi. Morfologik birlik bo‘lgan so‘z shakl sintaktik birlik ichida ma‘lum vazifa bajaradi, haqiqiy hayotini uning ichida topadi.

Bir guruh tilshunoslar so‘z birikmasiga mustaqil til (nutq) birligi sifatida qaraydilar. Jumladan, V.P. Malashenko va Yu.P. Bogachevlar so‘z birikmasi shu birikmani tashkil etgan hokim **so‘zning bog‘lanish imkoniyatining (valentlik xususiyatining)** gap tarkibida yuzaga chiqishi, deb qaraydilar va shuning uchun ham so‘z birikmasini ob‘ektiv til birligi hisoblaydilar.

Ularning fikricha, har qanday so‘z birikmalari nutq jarayonida vujudga keladi. Ammo bu semantik-sintaktik birlik ma‘lum tilda gaplashuvchilar ongida o‘rnashgan muayyan andazalar asosida tarkib topadi. Bu modellar xuddi gap modellari singari nutqiy reallashuvga qadar ham tayyor holda mavjud bo‘ladi.

Boshqa bir guruh tilshunoslar esa so‘z birikmasining til birligi, gap uchun qurilish materiali ekanligin rad etadilar.

Jumladan, Yu.F.Fomenko o‘zining asarlarida bu xaqida fikr yuritar ekan, o‘z fikrini isbotlash uchun quyidagi asoslarni keltiradi: 1) so‘z birikmasi kommunikativ vazifa ham, nominativ vazifa ham bajarmaydi. Birinchisi - gap, ikkinchisi – so‘zlar orqali ifodalanadi; 2) so‘z birikmasi tushunchani emas, tushunchalar birikmasini ifodalaydi.<sup>5</sup>

Sintaksis haqida nazariy asoslarni bayon qilar ekanmiz, tadqiqotimizni sintaktik jihatdan tahlil qilishni ham joiz topdik.

**I. So‘z birikmasi shaklidagi iqtisodiy metaforalar:** *a knowledge economy, an economic boom, , peak power output, block tariffs, a circular economy va h.k.z.*

O‘zbek tilida esa quyidagilarni kuzatdik:

*smart ofis, yo‘l xaritasi, iqtisodiy iroda, texno park, raqamli iqtisodiyot, fiskal maqsad, kredit liniyalari, iste‘mol kayfiyati, elektron buxgalter va h.k.z.*

Chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, *a knowledge economy* misolida ikkita mustaqil so‘zlar *a knowledge* hamda *economy* so‘zlarining birikishidan birikma shaklidagi metafora hosil bo‘lgan.

« *an economic boom* » so‘z birikmasi va boshqalari ham xuddi shu tarzda tahlil qilinadi. Bunda yana sifat+ot so‘z turkumlaridan iborat tarkibni ham kuzatishimiz mumkin.

O‘zbek tilidagi misollarni qarab chiqadigan bo‘lsak, shu narsa ayon bo‘ladiki, o‘xshash tomoni *yo‘l xaritasi, kredit liniyalari, iste‘mol kayfiyati, elektron buxgalter* kabi iqtisodiyotning bank tizimi sohasiga tegishli metaforalarida ikkita mustaqil so‘zlar

<sup>5</sup> А.Нурмонов, Н.Махмудов. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент “Ўқитувчи” 1995, 7 -25 Б

birikib, so‘z birikmasini hosil qilgan. Ingliz tilidan farqli jihati shundaki, bu metaforalardagi tarkib ot+ot shaklini tashkil etadi. Misol uchun, yo‘l(ot) +xaritasi (ot)

Umuman olganda, har ikkala tilda ham uchraydigan so‘z birikmasi tarzidagi iqtisodiy metaforalarni sintaktik jihatdan yetarlicha tahlil qilish mumkin. Va ular gap tarkibida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi.

## II. Gap shaklidagi iqtisodiy metaforalar:

***ECONOMY WAS SLOWLY STRANGLLED*** -Instead the economy was slowly strangled by overdependence on one exploitable resource which created production bottlenecks, inefficiency, sorruption and mismanagement...

***ECONOMIES NEED THE KISS OF LIFE*** - Southern economies need the kiss of life that science and technology can give them.(Headline)

***ECONOMY SHOULD FEED*** - The strong world economy should eventually feed through to better exports and higher investment...(Headline)

***ECONOMY IS THIRSTY*** - The single greatest Chinese interest in Africa is oil. China’s economy is thirsty; by 2030, it will need to import 60% of its oil.

***ECONOMY IS STARVING*** -... easing sectarian strife and rescuing the oil-rich country's economy, which has been starved of foreign investment. (Headline) (UKGC\_Apr/06, p 298)

***ECONOMY IS NURSED BACK TOWARDS STABILITY*** -.... and slowly and painfully, the Turkish economy was nursed back towards stability.

O‘zbek tilida esa umuman gap shaklidagi iqtisodiy metaforalarni uchratmadik:

Chuqurroq tahlil qiladigan bo‘lsak, yuqorida keltirilgan misollar gap shaklida berilib, asosan iqtisodiy inqiroz, iqtisodiy inflyatsiya hamda ma’lum bir iqtisodiy xabarni ommaga yetkazishga xizmat qilmoqda.

«***ECONOMY IS THIRSTY***» gap shaklidagi iqtisodiy metaforasini oladigan bo‘lsak, ushbu jumla tarkibi ega va kesimdan tashkil topgan.

***ECONOMY-ega , IS THIRSTY***- predikat ya’ni *to be* ko‘makchi fe’li orqali yasalgan kesimdir.

Demak, o‘zbek tilidan farqli jihati shundaki, publitsistikada iqtisodiy xabar va yangiliklarni yetkazishda, e’lon qilishda gap shaklidagi metaforalar ingliz tilida ko‘p uchraydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. Ключерова А.О. [Структура и функции метафор в произведениях А.С. Грина](https://www.dissercat.com/content/struktura-i-funksii-metafor-v-proizvedeniyakh-as-grina). Дисс. канд. филол. наук. – Москва: 2018. <https://www.dissercat.com/content/struktura-i-funksii-metafor-v-proizvedeniyakh-as-grina>
2. Калашникова Л.Р. Метафора как механизм когнитивно-дискурсивного моделирования действительности. <http://www.dslib.net/jazyko-znanie/metafora-kak-mehanizm-kognitivno-diskursivnogo-modelirovaniya-dejstvitelnosti.html>

3. Магизова, Р. У. Основы метафорических изменений лексического значения в английском языке / Р. У. Магизова, Н. Ж. Гумерова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. № 26 (316). — С. 248-250.

4. А.Нурмонов, Н.Махмудов. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент “Ўқитувчи” 1995, 7 -25 Б

**Konferensiyaning maqsadi:**

*Professor-o‘qituvchilar, talaba-yoshlarni jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi rolini kuchaytirish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va takomillashtirish, shuningdek yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va rag‘batlantirish kabi ustuvor vazifalarini amalga oshirish hamda mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, yoshlarimizning ma‘naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda*

*5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.*

**BOSH MUHARRIR:**

**Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich**

**MAS‘UL KOTIB:**

**Xasanov Tursunali Xaydarali o‘g‘li**

**NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:**

**Xasanov Nurmuhammad Xaydarali o‘g‘li**  
*Farg‘ona davlat universiteti*

**Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o‘g‘li**  
*Farg‘ona davlat universiteti*

**“Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g‘oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 62-sonli respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi materiallari to‘plami, 1-Fevral, 2024-yil. – Farg‘ona shahri: BestPublication, 2024. – 86 b.**



Success  
Business

Customer  
Management  
Standard  
Development  
Consistency  
Business  
Cycle

Innovation  
Branding  
Solution  
Marketing  
Analysis  
Ideas  
Success

